

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASINING QARORI**

**FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI**  
**TOMONIDAN XALQ DEPUTATLARI TUMAN VA SHAHAR**  
**KENGASHLARI DEPUTATLIGIGA NOMZODLAR KO'RSATISH**  
**TARTIBI BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALARNI**  
**TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22 - 23-moddalari, “O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5, 9-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi

**Q A R O R   Q I L A D I :**

1. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish tartibi bo'yicha uslubiy tavsiyalar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalariga ijro uchun, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga ma'lumot uchun yuborilsin.

3. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida, shuningdek boshqa manbalarda e'lon qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati rahbari S.Kurbonkulov zimmasiga yuklansin.

**Markaziy saylov komissiyasi**

**Raisi**

*2017 yil «11» avgust,  
№ 844.*

**M.Abdusalomov**

*O'zbekiston Respublikasi*  
*Markaziy saylov komissiyasining*  
*2017 yil 11 avgustdagi 844-son*  
*qaroriga ilova*

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish tartibi bo'yicha uslubiy tavsiyalar**

1. Ushbu uslubiy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan tashqari) deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish saylovlarga oltmish besh kun qolganda boshlanib, qirq besh kun qolganda yakunlanadi.

3. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish fuqarolar yig'inida (vakillar yig'ilishlarida) amalga oshiriladi.

4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarni, u yoki bu siyosiy partiyaga mansubligidan qat'i nazar, deputatlikka nomzod etib ko'rsatishga haqlidir.

Deputatlikka nomzodlar etib mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan, tegishli tuman, shahar iqtisodiyotining rivojiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakati samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shayotgan, aholi orasida obro'-e'tiborga ega shaxslar ko'rsatiladi.

5. Saylov kuni yigirma bir yoshga to'lgan hamda qoida tariqasida tegishli hududda ishlovchi yoki yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod etib ko'rsatilishi mumkin.

6. Quyidagilar:

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

- sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining, Ichki ishlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod etib ko'rsatilmaydi.

Sudyalar, prokuratura organlari va hokimiyat ijroiya organlarining mansabdor shaxslari (tuman va shahar hokimlari bundan mustasno) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shsh to'g'risida ariza berganlari taqdirdagina xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinadilar.

7. Fuqarolar yig'ini Kengashi xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod ko'rsatishda barcha tashkiliy ishlarni amalga oshiradi.

Jumladan, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlari ko'rsatilayotgan shaxslar ro'yxatini fuqarolar yig'ini Kengashi shakllantiradi.

8. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga o'z nomzodini ko'rsatish uchun tegishli fuqarolar yig'ini Kengashiga murojaat qilish huquqiga ega.

Shuningdek, tegishli hududda faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlari ham o'z vakillarini xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod sifatida fuqarolar yig'ini Kengashiga tavsiya etishi mumkin.

9. Fuqarolar yig'ilishi(vakillar yig'ilishida) xalq deputatlari tuman va shahar Kengashi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish haqida qaror qabul qiladi. (*Bayonnoma namunasi №1*).

Deputatlikka nomzodi ko'rsatilayotgan shaxs tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish bo'yicha fuqarolar yig'inida (vakillar yig'ilishida) qatnashish huquqiga ega. Tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar muhokama etilib, umumiy ovozga qo'yiladi. Eng ko'p ovoz olgan nomzod tasdiqlanadi. Ovoz berish shakli (ochiq yoki yashirin)fuqarolar yig'ini qarori bilan tasdiqlanadi.

10. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda joylashgan har bir saylov okrugidan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga bittadan nomzod ko'rsatishga vakolatlidir.

11. Agar tegishli xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov okrugi hududida ikki va undan ortiq fuqarolarning o'zini o'zini boshqarish organi joylashgan bo'lsa, deputatlikka nomzod tegishli hudud fuqarolari vakillarining qo'shma yig'ilishlarida ko'rsatiladi.

Yig'ilishda ishtirok etish uchun vakillik normasi tegishli tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Tegishli hudud fuqarolari vakillarining qo'shma yig'ilishi tuman, shahar saylov komissiyasi a'zosi ishtirokida o'tkaziladi. *(Mazkur jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda saylov okrugi joylashgan fuqarolar yig'inlari Kengashlarining qo'shma majlisida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzodlari ko'rsatilayotgan shaxslar ro'yxati tasdiqlanadi va tegishli saylov okrugi hududida yashovchi fuqarolar vakillarining qo'shma yig'ilishiga kiritish bo'yicha qaror qabul qilinadi (Bayonnoma namunasi №2).*

*Ikkinchi bosqichda saylov okrugi hududida yashovchi fuqarolar vakillarining qo'shma yig'ilishi o'tkazilib, unda xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga deputatlikka nomzod saylanadi.) (Bayonnoma namunasi №3)*

12. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ko'rsatish haqida bayonnoma tuziladi va fuqarolar yig'inining (vakillari yig'ilishining) qo'shma qarori qabul qilinadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli) xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodni ro'yxatga olishni so'rab tegishli tuman va shahar saylov komissiyasiga ariza beradi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- fuqarolar yig'in(lar)ining (vakillar yig'ilishining) tuman va shahar Kengashlariga deputatlikka nomzod ko'rsatish haqidagi (qo'shma) qarori;

- fuqarolar yig'in(lar)ining (vakillar yig'ilishining) deputatlikka nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, kasbi, lavozimi (mashg'ulotining turi), ish va yashash joyi, shuningdek, saylov okrugi nomi va tartib raqami ko'rsatilgan bayonnomasi;

- deputatlikka nomzodning o'z nomzodi tegishli saylov okrugi ovozga qo'yilishiga rozi ekanligi to'g'risidagi arizasi;

- ushbu tavsiyalarning 6-bandi 5-xatboshisida ko'rsatib o'tilgan shaxslarning, basharti ular deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlardan bo'shshah haqidagi arizasi.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ro'yxatga olish haqida tuman va shahar saylov komissiyalariga taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish tartibi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonun asosida belgilanadi.

**Xalq deputatlari Shayxontoxur tuman Kengashiga 12-Qoratosh saylov  
okrugidan deputatlikka nomzod ko'rsatish bo'yicha "Adolat" mahalla,  
(shaharcha, qishloq, ovul) fuqarolar yig'inining (vakillari  
yig'ilishining) yig'ilishi  
BAYoNNOMASI**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_ y.

\_\_\_\_\_ (shahar, tuman)

**Raislik qiluvchi:** \_\_\_\_\_ – “Adolat” mahalla fuqarolar yig'ini raisi.

**Qatnashdilar:** “Adolat” mahalla fuqarolari vakillari.  
Jami \_\_\_\_\_ nafar kishi (ro'yxat ilova qilinadi).

**K U N T A R T I B I:**

12-Qoratosh saylov okrugi tarkibiga kiruvchi “Adolat” mahalla (shaharcha, qishloq, ovul) fuqarolar yig'inidan xalq deputatlari Shayxontoxur tuman Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish.

**Tashkiliy masalalar:**

Fuqarolar vakillarining ko'pchilik ovozi bilan yig'ilish kotibi etib “Adolat” mahalla fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi *Toshmatova G.M.* saylandi;

**Sanoq komissiyasi:**

1. *Abdullaev Olim Obidovich*, 1965 yili tug'ilgan, Muqimiy ko'chasi, 65-uyda yashovchi, “Adolat” mahallasi faoli;

2. *Safarova Mavluda Aripovna*, 1983 yili tug'ilgan, 6-uy, 21-xonadonda yashovchi, “Adolat” mahallasi faoli;

3. *Ikromov Xasan Valievich*, 1974 yili tug'ilgan, 4-uy, 16-xonadonda yashovchi, \_\_\_\_\_ maktab o'qituvchisi tarkibida shakllantirildi.

Yig'ilish reglamenti tasdiqlandi. Unga ko'ra:

Nomzodlarga, o'z rejalarini bayon etish uchun – 10 daqiqa;

Savol-javoblar – 5 daqiqa;

Munozaralar uchun – 5 daqiqa.

Deputatlikka nomzodi tavsiya etilayotgan shaxsga ovoz berish shakli aniqlab olindi (ochiq yoki yopiq ovoz berish yo'li bilan).

Ko'pchilik ovoz bilan ochiq ovoz berish shakli tasdiqlandi.

“Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini raisining xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga bo’lib o’tadigan saylovlar va “Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini tomonidan xalq deputatlari *Shayxontoxur* tuman Kengashiga saylov bo’yicha *12-Qoratosh* saylov okrugiga deputatlikka nomzod ko’rsatish bilan bog’liq vakolatlari haqida ma’lumoti tinglandi.

“Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini tomonidan mahalla aholisining fikr-mulohazalari va boshqa jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olgan holda shu hududda yashovchi va ishlovchi quyidagi fuqarolarning nomzodlari ko’rsatilgan:

1. *Abdurahmonova Aziza Karimovna*, 1966 yili tug’ilgan, millati o’zbek, ma’lumoti oliy, pedagog, partiyasiz, Muqimiy ko’chasi, 12-uyda istiqomat qiladi, 2012 yildan buyon “Adolat” mahallasi fuqarolar yig’inida diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo’yicha maslahatchi bo’lib ishlaydi;

2. *Ivanova Olga Aleksandrovna*, 1970 yili tug’ilgan, millati rus, ma’lumoti oliy, quruvchi-injener, “Adolat” SDP a’zosi, Farobiy ko’chasi, 64-uyda istiqomat qiladi. “Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi “Obod” xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati direktori lavozimida ishlaydi;

3. *Yo’ldoshev Ikrom Qayumovich*, 1986 yili tug’ilgan, millati o’zbek, oliy ma’lumotli, pedagog, O’zLiDeP a’zosi, 4-uy, 15-xonadonda istiqomat qiladi. \_\_\_\_\_ umumta’lim maktabida o’qituvchi bo’lib ishlaydi.

So’zga chiqdilar:

- 1.
- 2.
- 3.

(So’zga chiqqanlar taklif etilgan nomzodlarni tavsifladilar)

Nomzodlarga o’z rejalarini bayon etish va savollarga javob berish uchun alifbo tartibida so’z berildi:

- 1.
- 2.
- 3.

Raislik qiluvchi alifbo tartibida deputatlikka nomzodi tavsiya etilayotgan fuqarolarni ovozga qo’ydi.

- 1.
- 2.
- 3.

Sanoq komissiyasi har bir nomzodga berilgan ovozlarni sanab chiqdi va hisobot tayyorladi.

Sanoq komissiyasining raisi fuqarolar vakillarining ovoz berish yakunlari bo’yicha hisobotni o’qib eshittirdi. Unga ko’ra:

Abduraxmanova A.K. yig’ilganlarning 62%;

Ivanova O.A. yig’ilganlarning 20%;

Yo’ldoshev I.K. yig’ilganlarning 18% ovozini oldi.

Ko’pchilik ovoz bilan sanoq komissiyasining hisoboti tasdiqlandi.

“Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini vakillarining ovoz berishi natijalari asosida majlis

## **QAROR QILADI:**

1. “Adolat” mahalla fuqarolar yig’inidan xalq deputatlari *Shayxontoxur* tuman Kengashi saylovi bo’yicha *12-Qoratosh* saylov okruginan deputatlikka nomzod etib “Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo’yicha maslahatchisi *Abdurahmonova Aziza Karimovna* ko’rsatilsin.

2. “Adolat” mahalla fuqarolar yig’ini raisi *Shayxontoxur* tuman saylov komissiyasiga deputatlikka nomzodni ro’yxatga olish uchun tegishli hujjatlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda taqdim etsin.

**Yig’ilish raisi:** \_\_\_\_\_

**Yig’ilish kotibi:** \_\_\_\_\_



**Xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashiga 24-Tinchlik saylov okrugi bo'yicha deputatlikka nomzod tanlash bo'yicha "Navro'z" va "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'inlari Kengashlarining qo'shma yig'ilishi**  
**BAYONNOMASI**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_ y.

(shahar, tuman)

**Raislik qiluvchi:** \_\_\_\_\_ – “Navro'z” mahalla fuqarolar yig'ini raisi.

**Qatnashdilar:** \_\_\_\_\_ “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'ini raisi;  
“Navro'z” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi a'zolari.  
Jami \_\_\_\_\_ nafar kishi (ro'yxat ilova qilinadi).

**K U N T A R T I B I:**

**1. Xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashiga 24-Tinchlik saylov okrugi bo'yicha deputatlikka nomzodlar tanlash va ular ro'yxatini “Navro'z” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar vakillarining qo'shma yig'ilishiga tavsiya etish to'g'risida.**

**2. Boshqa masalalar.**

“Navro'z” mahalla fuqarolar yig'ini mas'ul kotibining axborotiga ko'ra 24-Tinchlik saylov okrugi hududida “Navro'z mahallasining ikkita ko'p qavatli uylaridan tashqari barcha hududi kiritilgan. Mahallaning ushbu saylov okrugi hududiga kiritilgan qismida \_\_\_\_\_ nafar aholi yashaydi, undan ovoz berish huquqiga ega fuqarolar \_\_\_\_\_ tani tashkil etadi. Tuman saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan vakillik normasiga asosan \_\_\_\_\_ vakil saylangan. “Navro'z” fuqarolar yig'ini Kengashi tomonidan quyidagi fuqarolar deputatlikka nomzod sifatida tavsiya etilmoqda:

1. Abduraxmanova Aziza Karimovna, 1966 yilda tug'ilgan, millati uzbek, ma'lumoti oliy, pedagog, partiyasiz, Mukimi ko'chasi, 12-uyda yashaydi, 2012 yildan “Navro'z” mahalla fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi vazifasida ishlaydi;

2. Yuldashev Ikrom Qayumovich, 1986 yilda tug'ilgan, millati uzbek, ma'lumoti oliy, pedagog, O'zLiDeP a'zosi, 4-son ko'p qavatli uyning 15-xonadonida yashaydi, \_\_\_\_\_-son umumta'lim maktabida ishlaydi;

3. Aliev Ilxom Komilovich, 1955 yilda tug'ilgan, millati uzbek, ma'lumoti oliy, pedagog, partiyasiz, 3-son ko'p qavatli uyning

25-xonadonida yashaydi, qarilik nafaqasida, fuqarolar yig'inining jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish komissiyasi a'zosi;

“Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi axborotga ko'ra 24-Tinchlik saylov okrugi hududiga “Mustaqillik” mahallasining bitta ko'chasi va bitta ko'p qavatli uyi kiritilgan. Mahallaning ushbu saylov okrugi hududiga kiritilgan qismida \_\_\_nafar aholi yashaydi, undan ovoz berish huquqiga ega fuqarolar \_\_\_tani tashkil etadi. Tuman saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan vakillik normasiga asosan \_\_\_ vakil saylangan. “Mustaqillik” fuqarolar yig'ini Kengashi tomonidan quyidagi fuqarolar deputatlikka nomzod sifatida tavsiya etilmoqda:

1. Ivanova Olga Aleksandrovna, 1970 yilda tug'ilgan; millati rus, ma'lumoti oliy, injener-quruvchi, “Adolat”SDP a'zosi, Forobiy ko'chasi 64-uyda yashaydi, “Obod”xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati direktori lavozimida ishlaydi;

2. Maxmudov Uchqun Aripovich, 1964 yilda tug'ilgan, millati uzbek, ma'lumoti o'rta-maxsus, “O'zLiDeP” a'zosi, A.Navoiy ko'chasi 41-uyda yashaydi, “Xosilot” fermer xo'jaligi rahbari;

“Navro'z”va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'ini Kengashlari takliflarini muhokama qilib,qo'shma yig'ilish

### **Q A R O R Q I L A D I**

Do'stlik tuman xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazuvchi 24-Tinchlik saylov okrugigidan deputatlikka nomzod saylash uchun “Navro'z”va “Mustaqillik” mahalla fuqarolari vakillarining qo'shma yig'ilishiga quyidagi shaxslar tavsiya etilsin:

1. Abduraxmanova Aziza Karimovna, 1966 yilda tug'ilgan, millati uzbek, ma'lumoti oliy, pedagog, partiyasiz, Muqumi ko'chasi, 12-uyda yashaydi, 2012 yildan “Navruz” mahalla fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi vazifasida ishlaydi;

2. Ivanova Olga Aleksandrovna, 1970 yilda tug'ilgan; millati rus, ma'lumoti oliy, injener-quruvchi, “Adolat” SDP a'zosi, Forobiy ko'chasi 64-uyda yashaydi, “Obod” xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati direktori lavozimida ishlaydi;

3. Yuldashev Ikrom Qayumovich, 1986 yilda tug'ilgan, millati uzbek, ma'lumoti oliy, pedagog, O'zLiDeP a'zosi, 4-son ko'p qavatli uyning 15-xonadonida yashaydi, \_\_\_-son umumta'lim maktabida ishlaydi;

**Yig'ilish raisi:**

**“Navro'z” mahalla fuqarolar**

**yig'ini raisi”**

**“Mustaqillik” mahalla fuqarolar**

**yig'ini raisi**

**Yig'ilish kotibi:**

*Namuna №3*  
(Saylov okrugi hududida ikki va undan ortiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan holatlarda ikkinchi bosqich majlisi)

**Xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashiga 24-Tinchlik saylov okrugi bo'yicha deputatlikka nomzod ko'rsatish yuzasidan "Navro'z" va "Mustaqillik" mahalla fuqarolarivakillarining qo'shma yig'ilishi**  
**BAYONNOMASI**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_ y.  
(tuman)

**Raislik qiluvchi:** \_\_\_\_\_.

**Hay'at a'zolari:**

- \_\_\_\_\_ – “Navro'z” mahalla fuqarolar yig'ini raisi;
- \_\_\_\_\_ – “Mustaqillik” mahallasi fuqarolar yig'ini raisi;
- \_\_\_\_\_ – Do'stlik tuman saylov komissiyasi a'zosi;
- \_\_\_\_\_ – Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish Do'stlik tuman Kengashi vakili.
- \_\_\_\_\_ – 15- umumta'lim maktabi direktori.

**Qatnashdilar:** “Navro'z” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolari vakillari.  
Jami \_\_\_\_\_ nafar kishi (ro'yxat ilova qilinadi).

**K U N T A R T I B I:**

**1. Xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashiga 24-Tinchlik saylov okrugi bo'yicha “Navro'z” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'inlaridan birgalikda deputatlikka nomzod ko'rsatish.**

Do'stlik tuman saylov komissiyasi a'zosining xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga bo'lib o'tadigan saylovlar va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining 24-Tinchlik saylov okrugi bo'yicha xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashiga deputatlikka nomzod ko'rsatish bilan bog'liq vakolatlari haqida ma'lumoti tinglandi. (*Yig'ilish raisi ha'at a'zolari orasidan saylanadi*)

**Tashkiliy masalalar:**

Fuqarolar vakillarining ko'pchilik ovozi bilan yig'ilish kotibi etib “Navro'z” mahallasi fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi Toshmatova G.M. saylandi;

### **Sanoq komissiyasi:**

1. *Abdullaev Olim Obidovich*, “Mustaqillik” mahallasi faoli;
2. *Safarova Mavluda Aripovna*, “Navro’z” mahallasi faoli;
3. *Ikromov Xasan Valievich*, 15-maktab o’qituvchisi tarkibida shakllantirildi.

Yig’ilish reglamenti tasdiqlandi. Unga ko’ra:

Nomzodlarga, o’z rejalarini bayon etish uchun – 10 daqiqa;

Savol-javoblar – 5 daqiqa;

Munozaralar uchun – 5 daqiqa.

Ko’pchilik ovoz bilan ochiq ovoz berish shakli tasdiqlandi.

Yig’ilish kotibi axboritiga ko’ra hududda yashovchi aholi va nodavlat notijorat tashkilotlar taklif va tavsiyalarini hisobga olgan holda “Navruz” i “Mustakillik” mahallalari Kengashlarining qo’shma yig’ilishi qarori bilan 24-Tinchlik saylov okrugidan deputatlikka nomzod sifatida quyidagi fuqarolar tavsiya etilgan:

1. *Abduraxmanova Aziza Karimovna*, 1966 yilda tug’ilgan, millati uzbek, ma’lumoti oliy, pedagog, partiyasiz, Mukimi ko’chasi, 12-uyda yashaydi, 2012 yildan “Navro’z” mahalla fuqarolar yig’inining diniy ma’rifat va ma’naviy axloqiy tarbiya masalalari bo’yicha maslahatchi vazifasida ishlaydi;

2. *Ivanova Olga Aleksandrovna*, 1970 yilda tug’ilgan; millati rus, ma’lumoti oliy, injener-quruvchi, “Adolat” SDP a’zosi, Forobiy ko’chasi 64-uyda yashaydi, “Obod” xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati direktori lavozimida ishlaydi;

3. *Yuldashev Ikrom Qayumovich*, 1986 yilda tug’ilgan, millati uzbek, ma’lumoti oliy, pedagog, O’zLiDeP a’zosi, 4-son ko’p qavatli uyning 15-xonadonida yashaydi, \_\_\_\_-son umumta’lim maktabida ishlaydi.

So’zga chiqdilar:

1.

2.

3.

(So’zga chiqqanlar taklif etilgan nomzodlarni tavsifladilar)

Nomzodlarga o’z rejalarini bayon etish va savollarga javob berish uchun alifbo tartibida so’z berildi:

1.

2.

3.

Raislik qiluvchi alifbo tartibida deputatlikka nomzodi tavsiya etilayotgan fuqarolarni ovozga qo’ydi.

1.

2.

3.

Sanoq komissiyasi har bir nomzodga berilgan ovozlarni sanab chiqdi va hisobot tayyorladi.

Sanoq komissiyasining raisi fuqarolar vakillarining ovoz berish yakunlari bo'yicha hisobotni o'qib eshittirdi. Unga ko'ra:

Abduraxmanova A. K. uchun yig'ilganlarning 62%;

Ivanova O. A. uchun yig'ilganlarning 20%;

Yuldashev I.Q. uchun yig'ilganlarning 18% ovoz berdi.

Ko'pchilik ovoz bilan sanoq komissiyasining hisoboti tasdiqlandi.

“Navro'z” va “Mustaqillik” mahallalari fuqarolari vakillarining ovoz berishi natijalari asosida qo'shma yig'ilish

### **QAROR QILADI:**

1. “Navro'z” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'inlaridan xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashiga saylov o'tkazuvchi 24-Tinchlik saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib “Navro'z” mahalla fuqarolar yig'ini diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi Abduraxmonova Aziza Karimovna ko'rsatilsin.

2. “Navro'z” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig'inlari raislari Do'stlik tuman saylov komissiyasiga 24-Tinchlik saylov okrugidan deputatlikka nomzodni ro'yxatga olish uchun qo'shma yig'ilish hujjatlarini qonunchilikda belgilangan muddatlarda taqdim etsin.

**Yig'ilish raisi:**

\_\_\_\_\_

**“Navruz mahalla fuqarolar**

**yig'ini raisi”**

\_\_\_\_\_

**“Mustaqillik” mahalla fuqarolar**

**yig'ini raisi**

\_\_\_\_\_

**Yig'ilish kotibi:**

\_\_\_\_\_